



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K: 616.98:578.834.1-053.2-06

YONDOSH KASALLIKLARI BOR BOLALARDA COVID-19 ASORATLARINING
RIVOJLANISH XAVF OMILLARINI TAHLIL QILISH



Raxmatullayeva Shaxnoza Baxadirovna

Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori(DSc)
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

e-mail: Doctor_shakhnoza@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0001-7257-2081>



Sadullayev Siroj Ernazarovich

Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va ftiziatriya kafedrası assistenti
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O'zbekiston

e-mail: sadullayev.siroje@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-4052-7183>



Xusanova Anvar Mirzakbarovich

Respublika maxsus 1-son Zangiota shifoxonasi direktori, PhD
Toshkent, O'zbekiston

Tadqiqot maqsadi: yondosh kasalliklari bo'lgan bolalarda COVID-19 ning og'ir kechishi va asoratlari uchun xavf omillarini tahlil qilish.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tadqiqot usullari: Tadqiqotga laboratoriya tomonidan COVID-19 (PZR) tasdiqlangan 18 yoshgacha bo'lgan 469 nafar bemor kiritildi. Asosiy guruh (kasalxonada davolanayotgan bemorlar) 249 kishidan, taqqoslash guruhi (ambulator bemorlar) 220 kishidan iborat edi.

Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi: gipotrofiya, semizlik, qandli diabet (moddalar almashinuvining buzilishi sifatida) asoratlar rivojlanish ehtimolini mos ravishda 10,69; 4,09 va 6,33 marta oshiruvchi muhim omillar sifatida aniqlandi. Tug'ma yurak nuqsonlari bilan bog'liq yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda asoratli kechish xavfi 2,26 baravar oshdi ($OR=2,26$). Shuningdek, nafas olish a'zolari kasalligi sifatida surunkali bronxitning mavjudligi asoratlar rivojlanish xavfini 2,05 baravarga oshirishi aniqlandi ($OR=2,05$). O'rta va past darajadagi xavf omillarini baholashda bronxial astma asoratlar ehtimolini 1,55 baravarga oshirishi aniqlandi ($OR=1,55$). Surunkali hepatit va B-20 infeksiyasi uchun imkoniyatlar nisbati qiymatlari mos ravishda 0,83 va 0,45 ni tashkil etdi ($OR=0,83$; $OR=0,45$), bu esa o'rganilayotgan namunada ushbu holatlarning boshqa yondosh kasalliklarga nisbatan mustaqil xavf omillari sifatida kamroq ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Kamqonlikning turli darajalarida imkoniyatlar nisbati ko'rsatkichlari 0,01 dan 0,41 gacha ($OR=0,01-0,41$) o'zgarib turdi, bu esa kamqonlik sindromining moddalar almashinuvi buzilishlariga nisbatan asoratlar rivojlanishiga kamroq ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Kalit so'zlar: COVID-19, bolalar, yondosh kasalliklar, kamqonlik, kechish og'irligi, imkoniyatlar nisbati.

Yondosh kasalliklari bo'lgan bolalarda COVID-19 asoratlarining rivojlanish xavf omillarini o'rganish dolzarbligi infeksiyaning pediatrik aholiga ta'siri davom etayotganligi va bemorlarning alohida guruhlarida kasallikning og'ir kechish ehtimoli saqlanib qolayotganligi bilan izohlanadi [1;2]. Ko'pchilik bolalarda COVID-19 yengil shaklda kechishiga qaramay, surunkali kasalliklarning mavjudligi salbiy oqibatlar xavfini sezilarli darajada oshiradi. Bu xavflarga nafas yetishmovchiligi, ko'p tizimli yallig'lanish sindromi rivojlanishi va reanimatsiya bo'limlariga yotqizish zarurati kiradi.

Bolalarda semizlik, bronxial astma, qandli diabet, tug'ma yurak nuqsonlari va immunitet tanqisligi holatlari kabi surunkali kasalliklar tarqalishining ortishi ushbu muammoning tibbiy-ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda [3;4]. Bundan tashqari, bolalarda turli xil yondosh kasalliklarning COVID-19 kechishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar hali to'liq emas va ba'zi hollarda bir-biriga zid. Bu esa xavfni o'z vaqtida baholash va bemorlarni davolashning eng maqbul usulini tanlashni qiyinlashtiradi [5;6].

SARS-CoV-2 virusining aylanishi davom etayotgan va qo'zg'atuvchining yangi variantlari paydo bo'layotgan sharoitda xavf guruhidagi bolalarda kasallikning asoratli kechishi xavf omillarini tizimlashtirish zarurati ortib bormoqda [7;8;9]. Bu esa profilaktika choralarining samaradorligini oshirish, kasallikni erta aniqlash va shaxsga yo'naltirilgan davolash uchun klinik va epidemiologik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi, shu bois tanlangan mavzu dolzarbdir.

Tadqiqotning **maqsadi** yondosh kasalliklari bor bolalarda COVID-19ning og'ir kechishi va asoratli xavf omillarini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot dizayni va bemorlar. Bir markazli qiyosiy tadqiqot o'tkazildi. Material yig'ish Zangiota tumanidagi 1-sonli Respublika ixtisoslashtirilgan shifoxonasi va Toshkent shahar Olmazor tuman tibbiyot birlashmasi-ko'p tarmoqli markaziy poliklinikada amalga oshirildi. Tadqiqot 2020-2024 yillar oralig'ida olib borildi.

Tadqiqotga COVID-19 tashxisi laboratoriya tomonidan (PZR orqali) tasdiqlangan 18 yoshgacha bo'lgan 469 nafar bemor kiritildi. Asosiy guruh (statsionar bemorlar) 249 kishidan, taqqoslash guruhi (ambulator bemorlar) esa 220 kishidan iborat edi. Kasalxonaga yotqizish mezonlari o'rta yoki og'ir darajadagi infeksiya, pnevmoniya mavjudligi va kislorod yordamiga ehtiyoj bo'ldi. Guruhlar yoshi va jinsi bo'yicha o'zaro mos kelardi. Barcha bemorlarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari tadqiqotda ishtirok etishga roziliklari haqida xabardor qilingan holda imzo qo'yidilar.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash IBM SPSS - 27-versiya statistik dasturlar to'plami, Microsoft Office Excel 2019 va o'rnatilgan statistik qayta ishlash funksiyalaridan foydalangan holda kompyuterda amalga oshirildi. Hisob-kitoblar uchun o'rtacha arifmetik (M), standart og'ish (SD), o'rtacha standart xato (m), mediana (Me), kvartillararo oraliq (Q1;Q3), nisbiy qiymat (uchrash chastotasi, %) va imkoniyatlar nisbati (OR) qo'llanildi. Ishonchlilik darajasi (p) Studentning t-mezoni va Kraskel-Uollis (H) mezon bilan aniqlandi.


Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, COVID-19 infeksiyasi bilan og'rigan 469 nafar bemorda hamroh va fon kasalliklari sezilarli darajada xilma-xilligi va bir xil emasligi bilan ajralib turadi. Aniqlangan patologiyalar orasida kasallikning klinik kechishini og'irlashtiruvchi anemiya sindromi ustunlik qildi. I darajali kamqonlik bemorlarning 36,94 foizida, II darajali kamqonlik 18,5 foizida, III darajali kamqonlik esa 12,2 foizida aniqlandi.

Nafas olish a'zolari kasalliklari orasida surunkali bronxit bemorlarning 9 foizida, bronxial astma esa 4,5 foizida qayd etildi. Endokrin va metabolik buzilishlar guruhida semizlik 4,1 foiz, qandli diabet 4,5 foiz, oqsil-energetik yetishmovchilik esa 3,6 foiz bemorlarda aniqlandi. Oshqozon-ichak trakti patologiyasi disbakterioz (4%), surunkali gastrit (2,6%), surunkali xolelitsist (1,7%) va malabsorbsiya sindromi (1,9%) ko'rinishida namoyon bo'ldi.

Bundan tashqari, bemorlarning bir qismida allergik va nevrologik kasalliklar aniqlangan: allergodermatit - 3,2%, simptomatik epilepsiya - 3,4%, raxit - 3%, diatez - 2% va allergik rinit - 2,99%. Tug'ma yurak nuqsonlari bemorlarning 2,8 foizida, OIV infeksiyasi (OITS) - 3,4 foizida, gelmintoz - 2 foizida, bolalar serebral falaji esa 2,1 foiz bemorlarda qayd etilgan.

So'ngra biz adabiyotlar va o'z amaliy tajribamizga ko'ra COVID-19 bilan kasallangan bolalarda ahvolning yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlar va nozologiyalarni tahlil qilish uchun tanlab oldik ($r < 0,05$).



1-rasm. COVID-19 bilan kasallangan bolalarda hamroh kasalliklarning uchrash darajasi

Shu munosabat bilan biz har bir belgi bo'yicha imkoniyatlar nisbati ko'rsatkichini hisoblab chiqdik. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

1-jadval

Tug'ma yurak nuqsoni mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllarini rivojlanish imkoniyatlari nisbatini hisoblash

	Yurak TN +	Yurak TN -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	8	189	197
COVID-19 yengil kechishi	5	267	272
Jami	13	456	469
IN=2.260 (95% CI 0.728-7.017)			

Shunday qilib, tug'ma yurak nuqsoni kabi omil 2.260; 95% CI ko'rsatkichi bilan asoratlar rivojlanish ehtimoli bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka ega. Biroq, xavf omili va natija o'rtasidagi bog'liqlik kuchi zaif.

2-jadval

Kamqonlikning yengil darajasi mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash
анемии легкой степени

	Kamqonlik 1 daraja +	Kamqonlik -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	7	190	197
COVID-19 yengil kechishi	225	47	272
Jami	232	237	469
IN= 0.008 (95% CI 0.003-0.017)			

Yengil kechuvchi anemiya boshqa hamroh kasalliklarga qaraganda ko'proq uchrasada, asoratlar rivojlanishi ehtimolini hisoblashda xavf omili va natija o'rtasidagi bog'liqlik kuchi ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi (0.008; 95% CI).

3-jadval

2 va 3-darajali anemiya mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash
2 va 3-darajali anemiya

	Anemiya 2 va 3 daraja +	Anemiya -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	40	157	197
COVID-19 yengil kechishi	104	168	272
Jami	144	325	469
OSH= 0.412 (95% CI 0.269-0.629)			

Shunday qilib, anemiyasi bor bolalarda, uchrash chastotasi yuqori bo'lishiga qaramay, og'ir shakllarning rivojlanish xavfi past.

4-jadval

Semizlik mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash
semizlik

	Semizlik +	Semizlik -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	14	183	197
COVID-19 yengil kechishi	5	267	272
Jami	19	450	469
OSH= 4.085 (95% CI 1.446-11.539)			

Shunday qilib, semiz bolalarda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimoli 4,09 barobar yuqori. Natijalar xavf omili va natija o'rtasidagi bog'liqlik kuchi kuchli ekanligini ko'rsatdi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

5-jadval

Gipotrofiya mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash gipotrofiya

	Gipotrofiya +	Gipotrofiya -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	21	176	197
COVID-19 yengil kechishi	3	269	272
Jami	24	445	469
OSH= 10.699 (95% CI 3.144-36.405)			

Shunday qilib, gipotrofiyalı bolalarda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimoli 10,7 barobar yuqori. Natijalar xavf omili va natija o'rtasidagi bog'liqlik kuchi kuchli ekanligini ko'rsatdi.

6-jadval

Qandli diabet mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash

Qandli diabet

	Qandli diabet +	Qandli diabet -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	17	180	197
COVID-19 yengil kechishi	4	268	272
Jami	21	448	469
OSH= 6.328 (95% IshO 2.095-19.114)			

Shunday qilib, qandli diabeti bor bolalarda COVID-19ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimoli 6,3 barobar ortadi. Natijalar xavf omili va oqibat o'rtasidagi bog'liqlik kuchli ekanligini ko'rsatdi. mili va oqibat o'rtasidagi bog'liqlik kuchi zaif va ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatdi.

7-jadval

Bronxial astma mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash

Bronxial astma

	bronxial astma +	bronxial astma -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	11	186	197
COVID-19 yengil kechishi	10	262	272
Jami	21	448	469
OSH= 1.549 (95% IshO 0,645-3.724)			

Bog'liqlik kuchi – zaif

9-jadval

Surunkali bronxit mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash

Surunkali bronxit

	surunkali bronxit+	surunkali bronxit-	Jami
--	--------------------	--------------------	------



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

COVID-19 og'ir kechishi	25	172	197
COVID-19 yengil kechishi	18	254	272
Jami	43	426	469
OShN= 2.051 (95% IshO 1.086-3.874)			

Surunkali bronxit kabi omil asoratlar rivojlanish ehtimoli bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka ega (2.051; 95% IshO). Biroq, xavf omili va oqibat o'rtasidagi bog'liqlik kuchi zaif.

10-jadval

Surunkali gepatit mavjud bo'lganda COVID-19 ning og'ir shakllari rivojlanish ehtimolligi nisbatini hisoblash

Surunkali gepatit

	surunkali gepatit +	surunkali gepatit -	Jami
COVID-19 og'ir kechishi	3	194	197
COVID-19 yengil kechishi	5	267	272
Jami	8	461	469
OShN= 0.826 (95% IshO 0.195-3.497)			

Bog'liqlik kuchi - ahamiyatsiz

Gipotrofiya, semizlik, qandli diabet (metabolik buzilishlarning namoyon bo'lishi sifatida) asoratlar rivojlanish ehtimolini mos ravishda 10,69; 4,09 va 6,33 barobar oshirgani aniqlandi. Tug'ma yurak nuqsonlari bilan bog'liq yurak-qon tomir patologiyasi mavjud bemorlarda asoratli kechish xavfi 2,26 barobar oshdi (OR=2,26). Shuningdek, nafas olish a'zolari kasalligi hisoblangan surunkali bronxit asoratlar rivojlanish xavfini 2,05 barobar oshirishi ma'lum bo'ldi (OR=2,05).

O'rta va past darajadagi xavf omillarini baholashda bronxial astma asoratlar ehtimolining 1,55 barobar oshishi bilan bog'liqligi aniqlandi (OR=1,55). Surunkali gepatit va V-20 infeksiyasi uchun imkoniyatlar nisbati qiymatlari mos ravishda 0,83 va 0,45 ni tashkil etdi (OR=0,83; OR=0,45). Bu esa o'rganilayotgan tanlanmada mazkur holatlarning boshqa hamroh kasalliklarga nisbatan mustaqil xavf omillari sifatida kamroq ifodalanganligini ko'rsatadi. Kamqonlikning turli darajalarida imkoniyatlar nisbati ko'rsatkichlari 0,01 dan 0,41 gacha o'zgarib turdi (OR=0,01-0,41). Bu esa metabolik buzilishlarga nisbatan kamqonlik sindromining asoratlar rivojlanishiga kamroq hissa qo'shishidan dalolat beradi.

O'tkazilgan statistik tahlil natijalari bolalarda COVID-19 asoratlari rivojlanishining eng muhim xavf omillari oqsil-energetik yetishmovchilik, qandli diabet va semizlik ekanligini xulosa qilish imkonini beradi.

Xulosalar.

1. Bolalarda COVID-19 ning kechishi hamroh kasalliklarning mavjudligi va tuzilishiga sezilarli darajada bog'liq. Asoratlar rivojlanish xavfiga eng ko'p ta'sir qiluvchi omillar - metabolik buzilishlar, ayniqsa semizlik, shuningdek qandli diabet va oqsil-energiya yetishmovchiligi; kamroq darajada yurak-qon tomir patologiyasi (tug'ma yurak nuqsonlari) va nafas olish a'zolarining surunkali kasalliklari ta'sir ko'rsatadi. Anemiya sindromining keng tarqalganligi kasallikning asoratli kechishiga sezilarli hissa qo'shmaydi.

2. Bolalarda COVID-19 asoratlarining shakllanishida hamroh kasalliklarning turlicha ta'siri aniqlangani xavfni erta baholash va bemorlarni davolashga shaxsiy yondashuvni talab etadi. Metabolik va surunkali kasalliklari bor bolalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa kuzatuv, davolash va asoratlarning oldini olish taktikasini takomillashtirish imkonini beradi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ludvigsson J.F. Systematic review of COVID-19 in children shows milder cases and a better prognosis than adults. *Acta Paediatrica*. 2020;109(6):1088-1095. DOI: 10.1111/apa.15270.
2. Cruz A.T., Zeichner S.L. COVID-19 in Children: Initial Characterization of the Pediatric Disease. *Pediatrics*. 2020;145(6):e20200834. DOI: 10.1542/peds.2020-0834.
3. Duan C., Liu L., Wang T., Chen H., Yu S., Huang S., Chan K.L., Wang X., Li N., Tam K.W., Ip P. Evidence linking COVID-19 and the health/well-being of children and adolescents: an umbrella review. *BMC Medicine*. 2024;22(116):1-23. DOI: 10.1186/s12916-024-03334-x
4. Шилина С.А., Скобеев И.Г., Майорова Е.В., Симонайтес А.А., Аникеева Н.А., Татиашвили Е.Ф., Панферухина А.Ю., Жилочкина А.М. Особенности течения коронавирусной инфекции у ребенка с тяжелой коморбидной патологией. *Российский педиатрический журнал*. 2022;3(1):351. [Shilina S.A., Skobeev I.G., Mayorova E.V., Simonaites A.A., Anikeeva N.A., Tatiashvili E.F., Panferukhina A.Yu., Zhilochkina A.M. Features of the course of coronavirus infection in a child with severe comorbid pathology. *Rossiyskiy Peditricheskiy Zhurnal=Russian Pediatric Journal*. 2022;3(1):351. (In Russ.)]
5. Шкарин В.В., Ковалишана О.В., Сергеева А.В., Муртаева А.А. Аспекты коморбидности у детей с COVID-19. *Детские инфекции*. 2023;22(2):49-55. DOI: 10.22627/2072-8107-2023-22-2-49-55. [Shkarin V.V., Kovalishena O.V., Sergeeva A.V., Murtaeva A.A. Aspects of comorbidity in children with COVID-19. *Detskie Infektsii=Children's Infections*. 2023;22(2):49-55. DOI: 10.22627/2072-8107-2023-22-2-49-55. (In Russ.)]
6. Wishnuwardhana M., Nindya M., Fernandez G., Jovito A. Comorbidities and COVID-19 severity in pediatric patients: systematic review and meta-analysis. *Paediatr. Indones*. 2022;62(1):51-60. DOI: 10.14238/pi62.1.2022.51-60.
7. Lu X., Zhang L., Du H., Zhang J., Li Y.Y., Qu J., Zhang W., Wang Y., Bao S., Li Y., Wu C., Liu H., Liu D., Shao J., Peng X., Yang Y., Liu Z., Xiang Y., Zhang F., Silva R.M., Pinkerton K.E., Shen K., Xiao H., Xu S., Wong G.W.K. SARS-CoV-2 Infection in Children. *N. Engl. J. Med*. 2020;382(17):1663-1665. DOI: 10.1056/NEJMc2005073.
8. Мазанкова Л.Н., Самитова Э.Р., Османов И.М., Выжлова Е.Н., Санталова Г.В., Коваль Г.С., Новосад Е.В., Ермолаева А.С., Быстрова Т.Н., Печкуров Д.В., Булгакова В.А., Пикуза О.И., Самитова А.Ф., Блохин Б.М., Делягин В.М., Харит С.М., Рулева А.А., Катосова Л.К., Мельникова А.А., Учайкин В.Ф. COVID-19 и коморбидная патология у детей. *Вопросы практической педиатрии*. 2022;17(1):16-23. DOI: 10.20953/1817-7646-2022-1-16-23. [Mazankova L.N., Samitova E.R., Osmanov I.M., Vyzhlova E.N., Santalova G.V., Koval G.S., Novosad E.V., Ermolaeva A.S., Bystrova T.N., Pechkurov D.V., Bulgakova V.A., Pikuza O.I., Samitova A.F., Blokhin B.M., Delyagin V.M., Kharit S.M., Ruleva A.A., Katosova L.K., Melnikova A.A., Uchaykin V.F. COVID-19 and comorbid pathology in children. *Voprosy Prakticheskoy Peditrii=Issues of Practical Pediatrics*. 2022;17(1):16-23. DOI: 10.20953/1817-7646-2022-1-16-23. (In Russ.)]
9. Бабкин А.А. Влияние коморбидной патологии на течение COVID-19 у детей. *Российский педиатрический журнал*. 2024;S1:15. [Babkin A.A. Influence of comorbid pathology on the course of COVID-19 in children. *Rossiyskiy Peditricheskiy Zhurnal=Russian Pediatric Journal*. 2024;S1:15. (In Russ.)]
10. Khusanov, A. M., Kh, N. A., & Sadullaev, S. E. (2024). THE STRUCTURE OF COMORBID PATHOLOGY IN CHILDREN WITH COVID-19. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 2, pp. 27-28).
11. Рахматуллаева, Ш. Б., Муминова, М. Т., Нурматов, А. Х., & Саъдуллаев, С. Э. (2023). Особенности течения COVID-19 у детей с коморбидной патологией. *Педиатрия. Восточная Европа*, (3 Часть 12), 436-442.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

